

**Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligida O‘zbekiston Respublikasi
Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini
tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–5040-son qarori
ijrosini ta’minlash borasida
Ma’lumotnoma**

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish maqsadida **2021-yil 15-fevral №29-son buyrug‘i asosida Ma’naviyat va ma’rifat kengashi tuzilgan.**

Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan tavsiya etilgan yo‘nalishlar asosida vazirlik va uning tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirish bo‘yicha ishlab chiqilgan 2026-yilga mo‘ljallangan “Yillik taqvim reja” Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi bilan kelishilgan va tasdiqlangan.

Ma’naviyat va ma’rifat markazi tomonidan taqdim etilgan raqamli targ‘ibot mahsulotlari - targ‘ibot-tashviqot materiallari vazirlik va tizimosti korxonalar ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida, rasmiy veb-saytlarida muntazam ravishda keng yoritib borilmoqda.

Vazirlik va uning tasarrufidagi tashkilotlarda mavjud kutubxonalarni lotin alifbosida chop edilgan sohaga oid, ilmiy, siyosiy, texnik hamda badiiy adabiyotlar bilan boyitib borish ishlari davom etmoqda. Tizimdagi kutubxonalar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi tomonidan til siyosatini takomillashtirish borasida tarqatilayotgan kitoblar bilan ta’minlangan.

o‘quvchi va talabala yoshlarni kitob mutolaasiga jalb etish, badiiy savodxonlik darajasini oshirish maqsadida “Ma’rifat ulashib” loyihasi doirasida el ardog‘idagi shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar davom etmoqda

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2023-yil 22-dekabr kuni o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishi davomida berilgan topshiriqlar ijrosini amalga oshirish maqsadida Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti tomonidan o‘tkaziladigan ma’rifiy targ‘ibot bo‘yicha qisqa muddatli o‘qitish kurslariga 100 dan ortiq vazirlik va tizimosti korxonalari xodimlari o‘quv kurslarining sertifikatlariga ega bo‘ldilar, “Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish” markazida tashkil etilayotgan oylik kurslarda shartnoma asosida o‘qish davom etmoqda.

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi o‘rtasida kitob oqishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” **2026-yil**

15-yanvardagi PQ-9-son qarori ijrosi bo'yicha CHORA-TADBIRLAR DASTURI ishlab chiqilgan hamda tasdiqlangan. Ushbu Chora-tadbirlar dasturi doirasida bir qator ishlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Vazirlik va tizimdagi ishchi-xodimlarga qulay mutolaa muhitini yaratish, ular o'rtasida kitobxonlikni rivojlantirishga qaratilgan loyihalar tashkil etilmoqda, kitobxonlik burchaklarini yagona standart va zamonaviy yondashuv asosida tashkil etish maqsadida ishlab chiqilgan namunaviy konsepsiya asosida **kitobxonlik burchaklari yaratilgan**.

Vazirlikning davlat tili hamda ma'naviyat va ma'rifat masalalari bo'yicha rasmiy TG sahifalarida **#mutolaa_zavqi bo'limi ochilgan** bo'lib, ushbu sahifalarda vazirlikning ishchi va xodimlariga muntazam ravishda mutolaa qilish uchun adabiy asarlar, ilmiy-ommabop kitoblar tavsiya qilinadi.

<https://t.me/DGQmatbuotkotibi/7277>, <https://t.me/DGQmatbuotkotibi/7268>

Shuningdek, kelgusida faol kitobxonlarni rag'batlantirish doirasida tanlovlar o'tkazish rejalashtirilgan.

Belgilangan tartibda barcha taqdimot materiallari hamda ma'lumotnomalarni Markazga taqdim etgan holda Kon-geologiya vazirligi Markaz tomonidan har yili o'tkaziladigan **“Eng namunali vazirlik va idora” tanlovida muntazam ishtirok etib keladi**.

Shuningdek, har haftaning juma kuni an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan “Ma'rifat soati” doirasida barcha ishchi-xodimlar faol ishtirok etadilar. Tizimda yoshlarning bilim saviyasi, dunyoqarashi va intellektual salohiyatini yanada yuksaltirish, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini oshirish maqsadida “Zakovat” intellektual o'yinlari ham faol tashkil etilgan.

Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi tomonidan o'z xodimlarini teatrlarga tashrifiniuyushtirish, milliy va jahon mumtoz musiqa san'ati asarlari bilan tanishtirishga qaratilgan konsert dasturlarini tashkil etish, ularga tashrif buyurish uchun chiptalar va abonementlar sotib olish amaliyoti tizimli ravishda joriy etilgan.

Shuningdek, joriy yilning 31-yanvar kuni barcha davlat idoralari xizmatchilari uchun tavsiya etiladigan spektakllardan biri - yozuvchi **Said Ahmadning “Ufq” nomli asari spektakliga** O'zbekiston Davlat drama teatriga kasaba uyushma mablag'lari hisobidan 3 600 000 so'mlik 60 ta chiptalar harid qilinib xodimlar tashrifi amalga oshirildi. Joriy yilning 21-fevral kuni **O'zbekiston Islom sivilizatsiyasi markaziga vazirlik jamoasining tashrifi uyushtirildi**. O'zbekistonda barpo etilayotgan zamonaviy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyatining ma'naviy asoslarini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish maqsadida **“Ma'naviy hayot”, “Tafakkur”, “Jadid”** kabi gazeta va jurnallarga yillik obuna bo'lingan.